

KONSTITUTSIYAVIY TAMOYILLAR ASOSIDA DAVLAT XARIDLARINING SHAFFOFLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistratura tinglovchisi

Toshxo'jayev Xikmatillaxo'ja Raxmatullayevich

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini konstitutsiyaviy tamoyillar asosida isloh qilish zarurati, shaffoflik va xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mexanizmlar, korrupsiyani kamaytirishning huquqiy va institutsional yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, konstitutsiya normalarida belgilangan ochiqlik, hisobdorlik, raqobat va qonun ustuvorligi tamoyillarining davlat xaridlari jarayoniga tatbiq etilishi ilmiy-nazariy yondashuvda yoritiladi.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, shaffoflik, konstitutsiyaviy tamoyillar, korrupsiyaga qarshi kurash, ochiqlik, hisobdorlik, raqobat, elektron tender.

Davlat xaridlari iqtisodiy xavfsizlikning, davlat moliyasining barqarorligi hamda jamiyatda adolat tamoyillarining ta'minlanishida nihoyatda muhim o'rin tutadi. Zero, davlat xaridlari orqali davlat tomonidan sarflanadigan har bir so'm -bu avvalo xalq tomonidan to'langan soliqlar, budget resurslari va davlat aktivlari hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur jarayonning shaffof, adolatli va qonuniy yo'l bilan amalga oshirilishi nafaqat boshqaruv talabidir, balki konstitutsiyaviy majburiyat sifatida e'tirof etiladi.

2023-yilda O'zbekiston Respublikasining yangilangan konstitutsiyasi qabul qilingach, davlat organlari faoliyati ustidan ochiqlik, xalq oldida hisobdorlik, iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishi, monopoliyaga yo'l qo'ymaslik, qonun ustuvorligini ta'minlash singari tamoyillar aniq belgilab berildi. Aynan ana shu tamoyillar davlat xaridlari sohasida ham tub islohotlar uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur o'zgarishlar, avvalo, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan so'nggi yillarda ilgari surilgan "ochiq va hisobdor davlat" modelining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'ldi.

Shu o'rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-2024-yillar davomida Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomalarida davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish, korrupsion xatarlarni kamaytirish va raqobat muhitini kuchaytirish bo'yicha ko'plab vazifalar belgilanganini ta'kidlash joiz. Masalan, 2020-yilgi murojaatnomada davlat xaridlarini to'liq raqamlashtirish, xarid jarayonlarida "yopiq kelishuvlar"ga barham berish va har bir xarajat bo'yicha jamiyatga ochiq hisobot berish zarurligi alohida ko'rsatib o'tilgan. 2021-yilgi nutqlarida esa e-xarid platformalarini takomillashtirish, elektron auksionlar sonini ko'paytirish, shuningdek, xarid hujjatlarini xalq uchun tushunarli va ochiq qilish vazifasi qo'yilgan. 2023-yilda esa konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar bilan uyg'un holda, "xalqning puli -xalqning nazoratida bo'lishi kerak" tamoyili yana bir bor qayd etildi.

Shu bilan birga, davlat xaridlari tizimidagi shaffoflik -bu oddiy texnik talab emasligi, balki konstitutsiya darajasida belgilangan normativ majburiyat ekani ham muhim. Har bir tender e'loni, har bir qaror, har bir pudratchining tanlanish sababi jamiyat oldida izohlanishi, tegishli platformalarda oshkora e'lon qilinishi va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan nazorat qilinishi shart. Zero, xaridlar orqali sarflanayotgan moliyaviy resurslarning manbai -bu xalqning mehnati evaziga shakllangan budjet mablag'laridir. Shu sababli davlat xaridlaridagi har qanday qonunbuzarlik yoki yashirin kelishuv jamiyat manfaatiga zid bo'lib, iqtisodiy xavfsizlikni zaiflashtiradi.

Aynan shu omillarni inobatga olgan holda, hukumat tomonidan 2020-2024-yillar davomida davlat xaridlarida shaffoflikni oshirishga qaratilgan bir qator institutsional islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, "E-xarid", "E-auksion" kabi platformalarning joriy etilishi, ochiq ma'lumotlar portalining kengaytirilishi, tender natijalarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. Bu esa konstitutsiyada belgilangan ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarining amalda ro'yobga chiqishiga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyaviy tamoyillar har bir davlat organining faoliyatida, jumladan davlat xaridlarida ham asosiy boshqaruv mezon sifatida xizmat qiladi. Davlat xaridlari jarayonida ushbu tamoyillarning izchil qo'llanishi shaffoflik, raqobat, adolat va samaradorlikning oshishiga olib keladi. Zero, xaridlar orqali sarflanayotgan mablag'lar - bu xalqning puli bo'lgani uchun, konstitutsiyada belgilangan qoidalarga qat'iy rioya etish davlatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashning ajralmas qismidir. Avvalo, qonun

ustuvorligi tamoyili davlat xaridlari tizimining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyada davlat organlarining barcha qarorlari faqat qonun asosida qabul qilinishi shartligi belgilangan bo'lib, bu tender hujjatlarining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga zid bo'lmashligi, tanish-bilishchilik yoki manfaatlar to'qnashuvi orqali kimnidir asossiz qo'llab-quvvatlash holatlariga yo'l qo'ymaslik, tender ishtirokchilarining barchasi uchun teng huquq va teng imkoniyatlarni ta'minlash kabi talablarni o'z ichiga oladi. Agar qonun ustuvorligi ta'minlanmasa, korrupsiya xavfi keskin oshadi, davlat mablag'larining talon-toraj qilinishi ehtimoli kuchayadi va jamiyat davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchini yo'qotadi.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyada mustahkamlangan ochiqlik va oshkoralik tamoyili davlat xaridlarining shaffof bo'lishi uchun zaruriy asosdir. 2023-yilda konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar bilan davlat organlarining axborot berish majburiyati va ochiq ma'lumotlar doirasining kengaytirilishi belgilab qo'yildi. Bu prinsip davlat xaridlari sohasida barcha xaridlar yagona elektron platformada e'lon qilinishi, xarid natijalari, tender g'oliblari, shartnomalar va moliyaviy majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq ochiq bo'lishi, shuningdek, ochiq API orqali jurnalistlar, tadqiqotchilar va fuqarolik jamiyati institutlariga erkin ma'lumot olish imkoniyatini yaratishni talab qiladi. Ochiqlikning oshishi natijada narxlarning asossiz yuqorilashiga yo'l qo'ymaydi, raqobatni kuchaytiradi va korrupsiya holatlarini kamaytiradi.

Konstitutsiyaning yana bir muhim talabi bu -hisobdorlik tamoyilidir. Davlat organlarida mansabdor shaxslar faqat yuqori turuvchi rahbarlar oldida emas, balki xalq oldida ham javobgar bo'lishi nazarda tutilgan. Bu tamoyil davlat xaridlarida g'olibni asossiz tanlagan amaldorning javobgarlikka tortilishi, barcha tender jarayonlarining audit izlari shaklida saqlanishi, xaridlar bo'yicha elektron kuzatuv tizimlarining joriy etilishi kabi mexanizmlarni talab qiladi. Hisobdorlik mavjud bo'lgan tizimda har bir qarorning manbasi, sababi va huquqiy asosini aniqlash oson bo'ladi va bu orqali davlat boshqaruvida adolat va halollik tamoyillari mustahkamlanadi.

Shuningdek, konstitutsiyada iqtisodiy faoliyatning tengligi alohida kafolatlangan bo'lib, bu tenglik va raqobat tamoyillari orqali davlat xaridlarida ham amalda aks etishi zarur. Barcha tadbirkorlar tenderlarda teng asosda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishi

kerak. “Faqat bitta ishtirokchi qatnashadigan tenderlar”ning kamaytirilishi, sun’iy cheklovlar qo’yilmasligi, raqobatni cheklovchi monopolistik tendensiyalarga qarshi talablarning kuchaytirilishi mazkur tamoyilning amaliy ko‘rinishidir. Haqiqiy raqobat bo‘lgan joyda narxlar pasayadi, xaridlar sifati oshadi va davlat mablag‘lari tejaladi. Shu bois tenglik va raqobat davlat xaridlarining eng muhim sifat mezonini hisoblanadi.

Davlat xaridlarida shaffoflikni ta’minlash mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, korrupsion xatarlarni kamaytirish va davlat mablag‘laridan oqilona foydalanishni ta’minlashda asosiy omillardan biridir. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, axborotlarning ochiq bo‘lishi va sun’iy intellektga asoslangan nazorat mexanizmlari davlat xaridlarining samaradorligini keskin oshiradi. Avvalo, xarid jarayonining har bir bosqichini raqamlashtirish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Tender e’lonidan boshlab shartnomaning bajarilishi tugaguniga qadar barcha jarayonlar raqamli muhitda amalga oshirilishi, “E-xarid”, “E-auksion” va “E-monitoring” kabi platformalarning to‘liq integratsiyasi ta’minlanishi lozim. Bunday raqamli yechimlar inson omilini keskin kamaytiradi, noqonuniy kelishuvlarning oldini oladi va barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, xarid jarayoniga oid ma’lumotlarning to‘liq ochiqqlanishi shaffoflikning eng muhim mezonidir. Ochiq ma’lumotlar amaliyotiga ko‘ra, tender hujjatlari, texnik topshiriqlar, ishtirokchilarning takliflari, g‘olibning taklif narxi, tuzilgan shartnomalar, bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnomalar va hattoki qurilish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonidagi fotosuratlargacha omma uchun ochiq bo‘lishi kerak. Bu nafaqat jurnalistlar va fuqarolik jamiyati uchun, balki bozor subyektlari, raqobatni ta’minlovchi organlar, mustaqil tadqiqotchilar va xalqaro tashkilotlar uchun ham muhim monitoring vositasidir. Ochiqlik oshgan sari bozor mexanizmlari tabiiy ravishda narxlarni pasaytiradi, asossiz xarajatlarni qisqartiradi va korrupsion sxemalarga yo‘l qo‘ymaydi.

Uchinchi muhim yo‘nalish sifatida korrupsiyaga qarshi risk-indikatorlar tizimini joriy etish alohida ahamiyatga ega. Jahon banki va OECD tomonidan tavsiya etiladigan zamonaviy risk-modellar asosida tenderlarni avtomatik tahlil qilish korrupsiyaga moyil holatlarni erta aniqlash imkonini beradi. Masalan, juda qisqa muddatda e’lon qilingan tenderlar, bir xil pudratchilar takror-takror g‘olib bo‘layotgan holatlar, bozor narxlaridan

sezilarli darajada yuqori narxlar, tender shartlarining sun'iy ravishda tor doiraga moslab qo'yilgani kabi xatarlar sun'iy intellekt yordamida aniqlanib, "yuqori xavf" toifasiga kiritilishi mumkin. Bu esa inson omilidan holi bo'lgan, aniq algoritmlarga tayangan adolatli nazorat mexanizmini shakllantiradi. AI asosidagi monitoring tizimi real vaqtning o'zida ogohlantirishlar qayd etib boradi va tender jarayonining har bir bosqichida korrupsion xavflarni minimallashtirish imkonini beradi.

Davlat xaridlarining shaffof va adolatli tashkil etilishi nafaqat raqamlashtirilgan tizimlar, balki mustaqil qaror qabul qilish, jamoatchilik nazorati va bajarilgan ishlar ustidan real monitoring kabi institutsional mexanizmlarning kuchli bo'lishini ham talab etadi. Shuning uchun konstitutsiyada belgilangan hokimiyatlar bo'linishi tamoyili tender komissiyalarining mustaqilligini kuchaytirish zaruratini tug'diradi. Komissiya tarkibida mustaqil ekspertlar, jumladan, soha bo'yicha malakali iqtisodchilar, texnik mutaxassislar, auditorlar va nodavlat sektor vakillarining ishtiroki ta'minlanishi nafaqat qarorlarning sifatini oshiradi, balki manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, qabul qilingan har bir qaror yozma tarzda asoslab berilishi, qaror qabul qilish jarayonida qanday mezonlar qo'llangani, ishtirokchilar takliflari nechog'lik baholanganini ochiq tushuntirish majburiyati joriy etilishi lozim. Shu orqali tender jarayonida shaffoflikning yangi bosqichi shakllanadi. Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va uni barvaqt bartaraf etish uchun maxsus deklaratsiya tizimini kuchaytirish muhim bo'lib, bunda komissiya a'zolarining shaxsiy manfaatlari, qarindoshlik aloqalari yoki biznes manfaatlari o'ldirish ma'lumotlar maxsus reyestrda kiritiladi.

Shu bilan birga, davlat xaridlarining to'liq shaffof bo'lishi uchun jamiyat nazoratini kuchaytirish juda muhim. Konstitutsiyada fuqarolarning davlat organlari ustidan nazorat olib borish huquqi belgilab qo'yilgani bejiz emas. Ushbu huquqni amalda samarali ishlatish uchun jurnalistlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, bloggerlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari uchun maxsus ochiq portal yaratish lozim bo'ladi. Portal orqali tender natijalari, shartnomalar, xarajatlar, bajarilgan ishlarning holati bo'yicha ma'lumotlar oson topilishi, yuklab olinishi va tahlil qilinishi kerak. Shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan "Davlat xaridi bo'yicha shikoyat yuborish" tizimining soddalashtirilishi, murojaatlarning ko'rib chiqilish tartibining aniq belgilanishi

jamoatchilik nazoratini real mexanizmga aylantiradi. Buning ustiga, davlat xaridlari loyihalarining ommaviy muhokama qilinishi -ya'ni tenderga qo'yiladigan shartlar, texnik topshiriqlar va xarid shartlari bo'yicha jamoatchilik fikrini oldindan olish -shaffoflikning yuqori bosqichini ta'minlaydi.

Yana bir muhim yo'nalish -bu shartnomalarning bajarilish bosqichida monitoringni kuchaytirishdir. Ko'pincha shaffoflik faqat tender jarayoni bilan cheklanib qoladi, ammo aslida eng ko'p suiiste'molliklar aynan shartnoma bajarilishida sodir bo'ladi. Shu sababli bajarilgan ishlarning real holati, bajarilish muddati, sifat ko'rsatkichlari, qurilish obyektlarining fotosuratlar, moliyaviy hujjatlar, o'lchov dalolatnomalari va texnik ekspertiza natijalari ham ochiq bo'lishi kerak. Bu tizim orqali davlat buyurtmachilari ham, pudratchilar ham, jamoatchilik ham har bir sarflangan so'mning qayerga ketganini aniq ko'ra oladi. Shuningdek, elektron monitoring tizimlari orqali real vaqt rejimida shartnomalar bajarilishidagi kechikishlar, sifat kamchiliklari yoki xarajatlarning ortib ketishi bo'yicha ogohlantirishlar shakllantirilishi nazorat darajasini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlash bevosita konstitutsiyada belgilangan qonun ustuvorligi, ochiqlik, hisobdorlik va teng raqobat tamoyillarining amaliy tatbiqiga tayanadi. Mazkur tamoyillarning to'liq ishlashi xarid jarayonlarining hamma bosqichida adolatni, halollikni va samaradorlikni kafolatlaydi. Raqamlashtirilgan xarid tizimlari, ochiq ma'lumotlar portallari, mustaqil tender komissiyalari, jamiyat nazorati va shartnoma bajarilishi ustidan muntazam monitoring konstitutsiyaning "xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai" tamoyilini real hayotga tatbiq etadi. Natijada, davlat mablag'larining maqsadli sarflanishi, korrupsiyaning kamayishi va fuqarolarning davlat boshqaruviga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi . - Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni (O'RQ-684). - Toshkent, 2021-yil 22-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3953-son. -Toshkent.

4. OECD. *Davlat xaridlarida halollik tamoyillari* (OECD Principles for integrity in public procurement). - Parij: OECD nashriyoti, 2009.
5. OECD. *Davlat xaridlari bo'yicha tavsiyalar* (OECD Recommendation on public procurement). - Parij: OECD nashriyoti, 2015.
6. OECD. *Davlat xaridlarida halollik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash* (Integrity in public procurement). - Parij: OECD, 2020.
7. World Bank. *Benchmarking public procurement 2017*- Vashington: 2017.
8. Transparency International. *Davlat xaridlarida shaffoflik, hisobdorlik va halollik tizimlari* (Transparency, accountability and integrity of public procurement systems). - Berlin: Transparency international, 2023.
9. OECD. *Implementing the OECD principles for integrity in public procurement*. - Parij: OECD nashriyoti, 2013.
10. Adam, I. *Davlat xaridlarida shaffoflik va hisobdorlik tizimlari*. - Transparency international tahliliy hisobotlari to'plami, 2022.
11. Wolf, A. T. *Shared waters: Conflict and cooperation*. - *Annual review of environment and resources*, 2007, 32-jild, 241-269-betlar.